

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

### **5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).**

Darsni suhbat orqali yakunlash tavsiya etiladi. Tahminiy savollar:

1. Bugungi darsda qanday yangi narsalarni o'rgandingiz?
2. Toshbaqaning kosasini nimadan yasadingiz?
3. Yumaloq shakllar yordamida yana nimalarni yasash mumkin?

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilarni rangli qog'ozdan toshbaqaning hajmli shaklini yasashga o'rgatish.

## **8-DARS. DOIRACHALARDAN YASAYMIZ**

#### **Dars maqsadlari:**

- qog'ozdan dumaloq shakldagi qismlarni qirqib olish, buklab taxlash va yopishtirish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- bir yo'la bir xil o'lcham va shakldagi bir nechta qismni tayyorlash mahoratini mustahkamlash;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, darslik, buyum namunasi.

### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

### **2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi savollarni beradi:

1. O'tgan darsda nimalar qilganingizni eslab ko'ring.
2. Toshbaqa kosasini yasashda qanday shaklga ega detallardan foydalandingiz?
3. Bir vaqtning o'zida bir nechta bir xil shakllarni qanday qilib yasay oldingiz?

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darslikning 20-21-betlaridagi rasmlarga qarang. Nimalarni ko'ryapsiz? (*Dengiz mushugi, koptokcha, qisqichbaqa, xonqizi*).

Bu applikatsiyalar qanday qismlardan yasalgan? (*Ikkiga buklangan doiralar*).

Bugun doiralardan qanday ishni bajarishni xohlaysiz?

O'quvchilar darslikda keltirilgan applikatsiya namunalaridan birini bajarishlari yoki o'zları yangi g'oya o'ylab topishlari mumkin, lekin ular albatta doira shaklidagi qismlardan iborat bo'lishi kerak. O'qituvchi ishni boshlashdan oldin reja tuzib, barcha kerakli materiallar va asboblarni tayyorlash zarurligini eslatadi.

### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

### **5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).**

O'quvchilarda ikkita kartochka bor: ko'k va qizil. Ular dars boshida va oxirida o'z kayfiyatlariga mos ravishda kartochkani ko'rsatadilar. Bu holda biz mashg'ulot davomida o'quvchining hissiy holati qanday o'zgarishini kuzatib borishimiz mumkin.

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilarni ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishga o'rgatish;
- o'quvchilarda qo'l mehnati vositasida ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

## **9-DARS. PAXTA DISKLARIDAN BUYUMLAR YASAYMIZ**

#### **Dars maqsadlari:**

- o'quvchilarning qo'l bola materiallardan foydalanib, turli buyumlar yasash imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;
- paxta disklar yordamida applikatsiya yaratish ko'nikmasini shakllantirish;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.